

KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH – UMUMIY BURCHIMIZ

Hurmatli hamkasblar, qadrli kombinat jamoasi a'zolari!

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda, jumladan, sanoat va iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni samarali ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turli dasturlar va chora-tadbirlar bu illatga barham berish maqsadida amalga oshirilmoqda. Biz ham, metallurgiya kombinati xodimlari sifatida, bu boradagi davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashimiz, javobgarlikni his qilishimiz kerak.

Korrupsiya nafaqat qonunbuzarlik, balki jamiyatimiz va iqtisodimiz, ma'naviyatimiz uchun og'ir zarar keltiradigan illatdir. U ishonchni yo'qotadi, resurslarni noto'g'ri taqsimlaydi, adolatsizlikka yo'l ochadi.

Har birimiz fidokorona mehnat qilib kombinatimiz, mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishga harakat qilmoqdamiz. Biz, albatta birgalikda mehnat yutuqlariga erishib kombinatimiz salohiyatining yanada o'sishiga erishamiz.

Lekin bu yutuqlarimizga tahdid soluvchi, korxonamiz salohiyatini sustlashtiruvchi, ishonchimizni so'ndiruvchi korrupsiyaga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Korrupsiyaga qarshi birga kurashmasak, ishlab chiqarish jarayonlari, moliyaviy operatsiyalar va kadrlar siyosatimizda nosozliklar paydo bo'lishi mumkin. Bu esa kombinatga va har birimizga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik uchun o'z vazifamizga halollik bilan yondoshishimiz shart. Metallurgiya kombinatida ishchi-xodimning mehnati shaffof va adolatli baholanishi zarur. Buning uchun barcha ish jarayonlarida ochiqlikni ta'minlashimiz, har bir qarorga mas'uliyat bilan yondashishimiz lozim. Har qanday noqonuniy harakatlar, pora talab qilish yoki berishga yo'l qo'ymaslik zarur. O'z vazifalarimizni odilona va qat'iy bajarib, manfaatlar to'qnashuvidan saqlanish burchimiz ekanligini doimo yodda tutaylik.

Korrupsiyaga oid ma'lumotlarga diqqat bilan yondashib, bunday holatlarni yashirishga yordam bermang. Korrupsiya holatlarini ko'rgan yoki eshitgan paytda kombinat rahbariyatiga yoki tegishli idoralarga darhol xabar qilishimiz shart.

Har birimiz korrupsiyaga qarshi kurashda faol bo'lsak, kombinatimizda sog'lom ish muhiti yaratiladi, ishonch va adolat sohada mustahkamlanadi. Bu esa mahsuldorlikni oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratishga, ish haqini oshirishga, yangilanish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga imkoniyat beradi.

Biz hamkorlikda kombinatimizning kelajagini barqaror va obod qilishga qodirmiz. Faqat birdamlik va shaffoflik orqali biz nafaqat ishimizda, balki hayotimizda ham yuksalishga erishamiz.

Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Sizlarni yana bir bor korrupsiyaga qarshi qat'iy turishingizni so'rayman. Birgalikda haqiqiy o'zgarishlar, haqiqiy yutuqlarga erishamiz! Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat qonuniy majburiyatimiz, balki insoniy burchimizdir.

Metallurgiya kombinatida yaratilayotgan sog'lom muhit, ishonchli moliyaviy tizim va yuksak mas'uliyatga asoslangan boshqaruv – bizning kelajak muvaffaqiyatlarimizning kafolatidir.

Keling, halol va pokiza mehnatimiz bilan nafaqat korxonamiz, balki yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shaylik!

**Asror To'raboyev, "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi –
Bosh direktorining moliya iqtisodiyot va transformatsiya
masalalari bo'yicha o'rinbosari.**